

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya yo'nalishi III^Akurs talabasi
Shirinova Muqaddasning
O'rta Osiyo geografiyasi fanidan tayyorlagan

REFERATI



Buxoro-2016

Mavzu: O'rta Osiyo tekislik qismidagi maxsus qo'riq maskanlari

Reja

1. O'rta Osiyo tekislik qismidagi maxsus qo'riq maskanlari va ularning geografik joylashuvi
2. O'zbekistonning tekislik qismidagi maxsus qo'riq maskanlari

Jayron ekomarkazi -(O'zbekiston) noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvon turlarini saqlab qolish va ko'paytirishga ixtisoslashgan jahon miqyosida o'ziga xos bo'lgan ob'ekt hisoblanadi. 1977 yilda tashkil etilganida ekomarkaz «Buxoro jayronlarni ko'paytirishga ixtisoslashgan pitomnik» deb nomlanardi va unda 42 ta jayron, 4 ta qulon va sayg'oqlar boqilardi. Keyinchalik unda xalqaro va milliy Qizil kitoblarga kiritilgan xongul (buxoro bug'usi), gepard, yo'rg'a-tuvaloq ham boqildi. Pitomnikning oldiga jayronlarni ko'paytirish, ular biologiyasini o'rganish va populyastiyasi resurslaridan oqilona foydalanish vazifasi qo'yildi. Keyinchalik ijobiy natijalar olinganidan keyin pitomnik boshqa noyob turlar – qulon, Prjevalskiy oti, yo'rg'a-tuvaloqni ko'paytirish bilan shug'ullandi, bu erda sayg'oqlar podasi ham bor edi. Faoliyatini kengaytirish va hayvonlarni ko'paytirish sohasidagi muvaffaqiyatlari tufayli 26.12.98 yilda Vazirlar Kengashining farmoyishi bilan pitomnik «Jayron» ekomarkaziga aylantirildi.

Ekomarkaz maydoni 7153 ga bo'lib, shundan 5145 ga brakonerlar va yirtqichlardan himoyalaniş uchun metall to'siq bilan to'silgan. Pitomnikda tutqunlik sharoitida hayvonlarni o'rganish va zarurat tug'ilganida hayvonlar bolalarini qo'lda ovqatlantirish imkonini beradigan volerlar tizimi qurilgan. Hozirgi paytda 2007 yildagi hisobga ko'ra jayronlar miqdori 549 bosh, Prjevalskiy otlari 35 boshgacha, O'zbekiston tabiatida yo'qolib ketgan qulonlar 55 boshgacha etgan. Jayronni volerda ko'paytirish sohasidagi ishlar eng muvaffaqiyatli ketmoqda. Ekomarkaz faoliyat yuritgan vaqt davomida tutqunlikda ko'paytirilgan hayvonlarning 30 ta avlodini olishga muvaffaq bo'lindi. Bunda hayvonot bog'lari va xususiy kolleksiya larga 200 dan ortiq jayron, 5 ta Prjevalskiy oti sotilgan, 822

bosh jayron tarqatilgan, ovchilik mahsuloti (jayron) 128 boshni tashkil qildi. Ekomarkaz xodimlari bilan birga Rossiya, Fransiya, AQSh va boshqa mamlakatlarning mutaxassisleri tomonidan noyob ilmiy ishlar o'tkazildi. Ekomarkazning ilmiy hisobotlari Fanlar Akademiyasida taqrizdan o'tadi va Davbionazoratda saqlanadi. Har yili Prjevalskiy oti populyasiyasining holati haqidagi axborot Xalqaro otlar nasli kitobini yuritish uchun Xalqaro Prjevalskiy oti fondiga jo'natiladi. Buxorodagi Prjevalskiy oti populyasiyasi soni va ko'paytirish salohiyati bo'yicha jahondagi beshlikka kiradi. Ekomarkazda hayvonlar bosh suyaklarining noyob

to'plami mavjud. 2007 yilda unda 937 nusxa, shundan jayronlar bosh suyagi 918 nusxa mavjud edi. Kolleksiya materialining qadrliligi shubhasiz, to'plam O'zbekiston ilmiy va madaniy fondlar milliy ro'yxatiga kiritilgan. Hozirgi paytda Ekomarkaz jayron, qulon, Prjevalskiy oti, Buxoro tog'li qo'yini ko'paytirish bilan shug'ullanmoqda. 2007 yilda keltirilgan bir juft Buxoro qo'yidan 2 ta qo'zichog' tug'ildi. So'ngra yana 2 ta Buxoro qo'yi qo'zichog'i va 1 ta morxo'r uloqchasi keltirildi. Joriy paytdagi umumiy soni 6 bosh Buxoro qo'yi va 1 ta morxo'rdan iborat. Maqomi bo'yicha «Jayron» ekomarkazi ilmiy-ishlab chiqarish tashkiloti hisoblanadi. Shtati 33 kishi, 12 kishidan iborat ilmiy bo'limi bor. Ilmiy bo'lim kuchi bilan jayron, qulon, Prjevalskiy oti bo'yicha monitoring tadqiqotlari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari alohida mavzular bo'yicha qo'shma ishlanmalar, boshqa tashkilotlarning yakka tartibdagi tadqiqotlari ham mavjud.

Qorako'l quriqxonasi Buxoro viloyatining Qorako'l rayoni hududida: qumli maydonlarda 180-200 metr absolyut balandliklarda joylashgan. Qo'riqxonadan kengligi 30-40 metr bo'lgan Amu-Qorako'l va Amu-Buxoro kanallari o'tadi. Kanallar trassasi massividagi kadimgi jarliklar va pastqam uchastkalar kanal suvi bilan to'lib, qator ko'llar hosil qilgan (2000 gektar). Bular ko'plab baliq va kushlarning oromgohiga aylangan. Qo'riqxonaning vohaga chegaradosh bo'lganligi va uning hududidan kanallar oqib o'tganlygi uchun qo'riqxonaning tuproq va o'simliklari kuchli o'zgargan va o'ziga xos faunaga ega. Bu erda 200 ga yaqin oliy o'simlik turlari uchraydi," shundan 30 tasi daraxt va butalardir. Kanal

yoqasi va ko'llar atrofidagi to'qayzorlarda asosan jiya, turang'il, tol, qamish va boshqa o'simliklar keng tarqalgan. Qo'riqxonaning qumliklarida asosan qora saksovul, kandimning 6 turi, sishrenning 3 turi, cherkez, iloq va boshqa o'simliklar tarqalgan. Qo'riqxonaning tabiiy sharoiti rang-barang bo'lganligi uchun hayvonot dunyosi ham xilma-xildir. Qo'riqxonaning kanal va ko'llarida baliqlarning 32 turi uchraydi. Qo'riqxonaning qumli qismida sudralib yuruvchilardan cho'l toshbaqasi, kaltakesak, echkiemar, bo'g'mailon, o'qilon, charxilon va boshkalar yashaydi. Qo'riqxonada sugemizuvchilarning 30 dan ortiq turi bor. Ular orasista bo'ri, chiyabo'ri, tulki, qum mushugi va qum quyoni, ingichka barmoqli yumronkrziq, har turli qum sichqonlari uchraydi. To'qayzorlarda yovvoyi cho'chqa ko'p. Qo'riqxonada parrandalarning 170 dan ortiq turi mavjud. Shundan noyob turlary 20 taga etasti. Qo'riqxonada Zarafshon qirg'ovuli deb atalgan kenja tur mavjud. Qo'riqxona xodimlari oldiga tabiiy boyliklar bilan birga, Zarafshon qirg'ovulini qo'riqlash va ko'paytirish vazifasi qo'yilgan. Qorako'l ko'riqxonasi Urta Osiyoda cho'l qo'riqxonalari orasida voha bilan chegaradosh yagona tabiat laboratoriyasi bo'lib, uning landshafti ko'llar, kanallar, qamish-to'qayzorlar, sho'rxokliklar va saksovul bilan qogshangan qumliklardir. Qo'riqxonada ana shu voha va cho'l tabiiy komplekslari muhofaza qilinadi, shuningdek, kanallar o'tkazib, cho'l o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi o'rganiladi.

Bodayto'qay qo'riqxonasi Qoraqalpog'istonning Beruniy rayoni hududida, Amudaryo qayirida joylashgai. Bodayto'qay to'qay o'simliklari bilan qoplangan orol va yarimorollarni ishg'ol qilgan noyob tabiatli qo'riqxonadir. Qo'rikxonada o'simlik va hayvon turlari ko'p. Bu erda buta, turang'i, yulg'un va qiyozzorlar mavjud. Qo'riqxonada yovvoyi cho'chqa, bo'rsiq, kuyon, xiva qirg'ovuli, olachipor qizilishton va boshqa hayvon hamda qushlar yashaydi. Qo'riqxonadagi aralash to'qaylar va ularning tabiiy tarkibi faqat shu joylarga xos bo'lib Respublikaning boshqa joylarida uchramaydi. Qirg'ovulning Xiva kenja turi, Eron sarsabili, chirmovuqning uch turi faqat shu erda mavjud. Bodayto'qay qo'riqxonasining asosiy vazifasi Amudaryo qayiridagi tabiiy komplekslarni o'rganishdir.

Vardonza qo'riqxonasi joylashgan

Ushbu qo'riqxonada Buxoro vohasida, Shofirkon shahri yaqinida tashkil topgan, harakatdagi qumlarni to'xtatish maqsadida psammofitlarni ekish va o'stirish natijasida daraxtzor tarkib topgan. Asosan qorasaksovul, qandim, Rixter cherkezi, yulg'un tarqalgan. Hayvonlardan, asosan, dala quyoni, tulki, shokrl; qushlardan: ko'k kaptar, Misr quyqasi (miqqiy), oddiy tentakqush, oltin bo'zdoq, ko'k qarg'a, qaldirg'och, qirg'ovul va ko'plab sudralib yuruvchilar mavjud.

Qizilqum davlat qo'riqxonasi- (O'zbekiston) 1971 yilda tashkil topgan, Buxoro viloyatida joylashgan. Qo'riqxonada maydoni 10311 ga ni tashkil qiladi, shundan 5144 ga o'rmon bilan qoplangan, 6964 ga qumli zonada va 3177 ga Amudaryo bo'yida joylashgan. Qo'riqxonada hududida 250 turdagi hayvon mavjud, shundan 10 dan ortiq turi TMXR Qizil kitobi va O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirgan; 160 turdagi o'simlik uchraydi, shundan 2 turi O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirgan. Buxoro bo'g'usi alohida e'tiborga molik, uning soni 1991 yildan beri 200 boshgacha ko'paydi.

Qizilqum davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tizimiga kiradi hamda Qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar va ovchilik xo'jaliklari boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

Turkmaniston Respublikada mavjud bo'lgan 7 qo'riqxonaning funktsiyasi turlicha.

Krasnovod qo'riqxonasi- (Turkmaniston) (Krasnovod va Gasanko'li qismlari)ning asosiy vazifalari dengizbo'yi, shuningdek plato, quruq delta va poyma biostenozlarini muhofaza qilish, yo'qolib borayotgan 'o'simlik va hayvon turlarining sonini ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Qo'riqxonada akvatoriyasida zoobentosning vakili mavjud. «Qizilkitob»ga nomlari kirgan hasharotlardan maxaon, Kaspiyorti buzoqboshisi, asalari-durdgori uchraydi. 31 turdagi sudralib yuruvchilar (kal-takesak, ilon, toshbaqa va hokazo), qushlarning 50 turi, sutemi-

zuvchilarning 50 turi yashaydi. Qushlardan nomlari «Qizil kitob»ga tushgan qizil g'oz, kichik laylak, marmar churragi, oqbosh- o'rdak, ilon burgut, skopa, burgut, ok dumli dengiz burguti, uzun dumli dengiz burguti va boshqalar muhofaza qilinadi. Ko'plab o'tkinchi, qishlab qoluvchi qushlar yashaydi.

Qoplonqir qo'riqxonasi —Ustyurt platosida tashkil topgan. Bu qo'riqxonada Unguzorti, Sariqamish va Amudaryo deltasi hayvonot olamini tiklash vazifasini bajaradi. Qo'riqxonada 231 turdagi o'simliklar bor. Ular orasida «Qizil kitob»ga nomlari kiritilgan xiva sho'rasi, siyrak tikanli gulyavnik, turkman qo'shbargi va boshqalar. Sudralib yuruvchilarning 28 turi, shundan ilonning 9, kaltakesakning 18, toshbaqaning 1 turi uchraydi. Kul rang echkamar, O'rta Osiyo kobrasi, sovutli gekkoncha, xentou-qurbaqabosh kaltakesak; qushlardan: burgut, tuvaloq, sadja, ilon burgut, qironqora, itolg'i, pushti saqoqush, birkozon, nomlari «Qizilkitob»ga kiritilgan. Sutemizuvchilarning 50 turi uchraydi. Ulardan gepard, asalxur, qoraquloq, jayron, muflon, shalpangquloq, tipratikan, jayra «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Amudaryo qo'riqxonasi -to'qay va qumli cho'l qismlaridan iborat. To'qayda o'simliklarning 43turi, cho'lda 123 turi hisobga olingan. Daryoda baliqlarning 40turi mavjud. Sudralib yuruvchilarning 26 turi, shundan kobra, sovutli gekkon, kulrang echkamar nomlari «Qizil kitob»dan joy olgan. 280 turdagi qushlar ro'yxatga olingan. Ularning 24 turining nomi «Qizil kitob»ga kiritilgan. Bular pushti saqoqush, birkozon, qoshiqburun, oq va qora laylak, marmar churragi, oqbosh o'rdak, skopa, Yevropa tyuvigi, burgut, itolg'i, uzun dumli va oq dumli burgutlar, cho'l burguti, lochan, qoshiqburun, qironqora, sterx, bazg'aldoq, kora boshli xoxotun, Sutemizuvchilarning 40 turi ma'lum bo'lib, jayron, xongul, qorabuloq, barxan mushugi, olako'zan, O'rta Ocuyo kunduzining nomlari «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Tigrovaya balka qo'riqxonasi-Vaxsh daryosining quyi oqimida joylashgan. To'qay, daryo vodiysi va adirlar landshaftlarga xos. Qo'riqxonada 438 turdagi

o'simlik turi mavjud, shundan 120 turi cho'l qismida tarqalgan. «Qizil kitob»ga nomi tushgan o'simliklardan Rozanov kapersa, Tubergan lolasi, balandlik va past tog'larda buxor qo'shbargi mavjud, ularning miqdori 22 ta. Hasharotlar xam juda biser, ularning 5000 turi ma'lum, shundan 13 turining nomi «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Sudralib yuruvchilar oilasi qo'riqxonada katta: kaltakesaklarning 22 turi, klonlarning 12 turi mavjud. Sudralib yuruvchilar. ning 4 turining nomi «Qizil kitob»ga kiritilgan: kulrang echkema, ko'ndalang yo'l-yo'l volkozub, boga va Urta Osiyo kobasi. Qushlar asosan to'qayzorlarda keng tarqalgan. Cho'lda to'xtatuvo-loq, qoshiqburun, qora laylak, ilon burgut, oq dumli dengiz burguti, uzun dumli dengiz burguti, boltayutar, itolg'ilarning nomi «Kizil kitob»ga kiritilgan. Qora-oltin rang qirgovulni ko'paytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qo'riqxonada 45 turdagi Sutevizuvchilar mavjud bo'lib, ularning 6 ta maxsus qo'riqlanadi: xongul, O'rta Osiyo qunduzi, yo'l-yo'l sirtlon, koplun, jayron,. So'nggi turon yo'lbarsini 1953 yilda uchratilgan.

Ўрта Осиёнинг текислик қисми (Э.М.Мурзаев 1968 й. бўйича),
5-жадвал

Табиий-географик областлар	Табиий-географик районлар
1. Устюрт табиий-географик области	А. Шимолий подзона 1. Устюрти 2. Красноводск плотаси 3. Узбойорти 4. Сарикқамиш кўли 5. Амударёнинг Сарикқамиш дельтаси 6. Қизилкум
2. Сарикқамиш	7. Қирғизистон Чуй тоғи райони 8. Қирғизистон Таласс райони
3. Шимолий Қизилкум	Б. Жанубий подзона 9. Шимолий (Зоунгуз) Қоракум 10. Жанубий Қоракум 11. Каспий бўйи пасттекислиги 12. Копеттоғ олди 13. Поропомиз олди 14. Султон Увайс 15. Қизилкум плотаси 16. Нурота тоғ олди текислиги 17. Ғарбий Тяншан (Тошкент) тоғ олди текислиги
4. Семиречи	18. Зарафшон ёни 19. Амударё ўнг соҳили 20. Ғарбий Ҳисор 21. Фарғона чап соҳили 22. Фарғона ўнг соҳили 23. Сурхон 24. Вахш 25. Кўлоб 26. Амударё водийси 27. Амударё дельтаси 28. Сирдарё водийси 29. Зарафшон водийси 30. Мурғоб водийси 31. Тажанг водийси
5. Қоракум	
6. Жанубий Қизилкум	
7. Зарафшон - Амударё	
8. Фарғона	
9. Жанубий - Тожикистон	
10. Йирик дарёларнинг водий ва дельтаси	

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barotov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. - Toshkent, O'qituvchi, 2002-440 b.
2. Babaev A.G., Lavrov A.G., Amanmurodov K.M. Geografiya Turkmaniston. –Ashxabad 1989
3. Boltaev M.N. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. -Toshkent, O'zbekiston, 2003-204 b.
4. Karimov G.I.Politiko-ekonomicheskije reformi v Uzbekistane-Toshkent, 1995.- 310 s.
5. Mavlonov G'.O., Mamatqulov M.M. O'rta Osiyo tog'larining qadimgi muzliklari - Toshkent, Fan, 1972. -340 b.
6. Oraev N. Ekonomicheskaya i sostialnaya geografiya Turkmanistana – Ashxabad, 1984-272 s.
7. Rahimbekov R.U., Donstova Z.N. O'rta Osiyo tabiatini geografik o'rganish tarixi.- Toshkent, O'qituvchi, 1982. -2000 b.
8. Ro'ziev A.N. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. –Termiz, O'qituvchi, 2002.-118 b.
9. Qoriev M. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. -Toshkent, O'qituvchi, 1968.- 332 b.
10. G'ulomov P., Hasanov I. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi.-Toshkent, Universitet, 2002.
11. G'ulomov A., Vahobov H., Hasanov A. Turkmaniston tabiiy geografiyasi.- Toshkent, O'qituvchi, 1997.-132 b.
12. G'ulomov P.N. O'zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari. -Toshkent, O'qituvchi, 1990.-187 b.
18. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 1-12 jildlar. 2000-2006 yillar.